

VALYUTA OPERATSIYALARI MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Assistant: Abduvahobov Shaxzod

Talaba: Eshqobilov Asilbek

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola bank ishi asoslari fanining valyuta operatsiyalari menejmenti va uni takomillashtirish mavzusini rivojlantirishga bag'ishlangan. Shuningdek, valyuta operatsiyalari haqida malumot olish ham ko'zda tutiladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, sohaga yangiliklar kiritish soha rivojiga katta hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: valyuta, Tijorat banklari, bank daromadlari, bank xarajatlari, zamonaviy moliyaviy bozor, moliyaviy natijalar, sub'ektlar, konvertirlash.

Аннотация: Данная статья посвящена развитию темы управления валютными операциями и ее совершенствованию в науке основ банковского дела. Также предусмотрено получение информации о валютных операциях. Также следует отметить, что внедрение инноваций в отрасль вносит большой вклад в развитие отрасли.

Ключевые слова: валюта, коммерческие банки, банковские доходы, банковские расходы, современный финансовый рынок, финансовые результаты, субъекты, конвертация.

Abstract: This article is devoted to the development of the topic of currency operations management and its improvement in the science of the basics of banking. It is also envisaged to obtain information about currency operations. It should also be noted that introducing innovations into the industry contributes greatly to the development of the industry.

Key words: currency, Commercial banks, bank income, bank expenses, modern financial market, financial results, subjects, conversio

Kirish

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqiligiga erishganidan so'ng bozor munosabatlari asosida o'z rivojlanish yo'lini tanlar ekan, zamonaviy moliyaviy bozor va uning vositalariga ehtiyoj paydo bo'la boshladi. 2003 yilda joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha so'mni xorijiy valyutalarga erkin konvertirlashni joriy etilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, shu jumladan, tijorat banklarining valyuta operatsiyalarining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Shuningdek, valyutani tartibga solish va valyuta nazorati sohasiga doirchora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirildi va bu borada asosiy e'tibor eksport operatsiyalari bo'yicha valyuta

tushumining to'liq, o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlash hamda vakolatli banklarning valyuta resurslarini ko'paytirishga qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevni shaxsiy tashabbusi bilan 2017 yil 2-sentyabrda "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5177 – sonli Farmon qabul qilindi. Farmonda qayd etilganidek "... valyuta muomalasi sohasining haddan ziyod ma'muriy tartibga solinishi alohida tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun imtiyoz va preferentsiyalarning asossiz ravishda kam samarali bo'lgan tizimini shakllantirdi, biznes yuritishda teng bo'lmagan shart-sharoitlarning vujudga kelishi va raqobatning bozor tamoillari buzilishiga olib keldi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, tovarlar va xizmatlar eksportini oshirishda, umuman, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida to'sqinlik qiluvchi omilga aylandi".so'nggi yillarda iqtisodiyotimiz salohiyatini yuksaltirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, milliy valyutani erkin konvertatsiya qilish tizimiga to'liq o'tildi, biznes sohasidagi soliqlar qisqartirildi, kredit olish imkoniyatlari kengaydi, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib, ularda investorlarga keng imtiyozlar berildi. Shuningdek, mamlakatimiz valyuta sohasida amalga oshirilayotgan yangiliklardan biri bu –aholi uchunvalyuta ayirboshlash amaliyotlarini amalga oshirishni yengillashtiruvchi yangi bank xizmatlarining joriy etilishi hamda yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olish va sotish uchun keng imkoniyatlarning yaratilishidir. Tahlil va natijalar. Bugungi kunda xalqaro savdo aloqalari rivojlanib borar ekan, davlatlar o'rtasida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish shartnomadagi kelishuvga asosan, o'z milliy pul birligi yoki boshqa davlat pul birligida amalga oshiriladi. Ayni shu jarayonda banklar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning valyuta boyliklarini o'tkazish va qabul qilib olish bilan bir qatorda, konversion valyuta operatsiyalarini amalga oshiradilar. Mustaqillikning dastlabki yillarida tashqi aloqalarni kengaytirish, respublikaning eksport imkoniyatlarini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida butun tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish uchun negizlarni yaratib bergan asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi. Bular respublikaning iqtisodiy manfaatlarini, O'zbekistonning xorijdagi yuridik shaxslar va (jismoniy) fuqarolarini himoya qilishni ta'minlashga, respublika hududida xorijiy sarmoyadorlar faoliyati uchun huquqiy kafolatlarni belgilab berishga imkoniyat yaratdi. Valyuta operatsiyalari -bu xorijiy valyutada va valyutaviy qimmatliklar bilan bo'ladigan oldi-sotdi operatsiyalaridir. Xorijiy valyuta deganda rivojlangan va rivojlanag'tgan davlatlarning banknotalari va almashinuvchi tangalari tushuniladi. Valyutaviy qimmatliklarga quyidagilar:

- xorijiy valyutada yozilgan qarz majburiyatlari, ya'ni oddiy vekselar va trattalar;
- xorijiy valyutadagi yozilgan qimmatli qog'ozlar; oltin, platina va boshqa qimmatbaho metallar, toshlar kiradi. Valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi: valyuta boyliklariga bo'lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o'zga shaxsga

o'tishi hamda valyuta boyliklarini to'lov vositasi sifatida ishlatish bilan bog'liq operatsiyalar; valyuta boyliklarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va jo'natish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish va jo'natish; xalqaro pul jo'natmalarini amalga oshirish; rezidentlar va norezidentlar o'rtasida milliy valyutadagi operatsiyalar kiradi.

Xulosa: Tijorat banklarida valyuta bilan bog'liq ko'plab operatsiyalar bajariladi. Ularning aniqligini taminlash va samarali yakunlash juda muhim hisoblanadi. Shuningdek, valyuta operatsiyalarida chet el texnologiya va usullaridan foydalanish ham tijorat banklari rivojiga katta hissa qo'shadi deb o'ylayman. Valyuta operatsiyalarini audit qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi hamda Moliya vazirligining chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish va nazorat etishni tashkil qilish tartibi to'g'risidagi ko'rsatmalariga qat'iy rioya etilishiga e'tibor beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.A.ORTIQOV, I.YA.QULLIEV, BANK MENEJMENTI VA MARKETINGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI, "Tafakkur Bo'ntoni" Toshkent - 2015

2. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Possibilities of Increasing the Activity of Banks in the Securities Market, Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP), Volume 02 Issue: 03/2023 ISSN: 2751-7551 (159-162)

3. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Analysis of Existing Management Mechanisms and Assessment Methods of The Bank's General Financial Risk, Journal of Intellectual Property and Human Rights, Volume:02 Issue: 05/ May-2023, ISSN:2720-6882 (227-231)

4. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Improverment of Investment Activities in the Service Sector, Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES), Volume:02 Issue:03/2023 (53-58)

5. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Factors Causing Credit Risks in Commercial Banks and Their Assessment, Journal of Intellectual Property and Human, Volume:02 Issue:05/May-2023 ISSN:2720-6882 (221-226)

6. Sharipova N. D., Asadova S. D. THE ROLE OF BANKS IN THE MODERN MONETARY SYSTEM //Procedia of Theoretical and Applied Sciences. – 2023. – Т. 6. – С. 55-62.

7. Шарипова Н.Д., Чориев Я.А. СТРАХОВАНИЕ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management. -2023- Т.2. - С. 92-99.

8. Sharipova N. D., Jurayev I. S. THEORETICAL FOUNDATIONS OF MONETARY POLICY// INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIONS IN ENGINEERING RESEARCH AND TECHNOLOGY. – 2023. -Т. 10. -С. 171-173.

9. Sharipova N. D., Aliboyev L.Sh. THE IMPORTANCE OF ANTI-INFLATIONARY POLICY AND INFLATION TRADING IN UZBEKISTAN// INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT. -2023. -Т. 10. -С. 92-94.

10. Tursunov, F. M. (2023). TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK

11. XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI

12. BARTARAF ETISH AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(30), 75–81.

13. Tursunov Faridun Mustafoyevich. (2023). OPPORTUNITIES FOR REMOTE BANKING SERVICES TO GROW IN REPUBLIC OF UZBEKISTAN'S COMMERCIAL BANKS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 4–7.

14. Каримова А.М., Махсудов О.Ш. Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan / Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт журнали, 2023-йил, октябрь, 10-сон, 79-83.

15. Ниязов З. Д., Махсудов О.Ш. Investment attractiveness of the enterprise, as well as factors influencing its development in the economy of Uzbekistan./ Иқтисодиёт, молия ва инновациялар халқаро илмий журнали, декабрь 29, 2023 1(4) сон, 47-55.

16. Каримова А.М., Ниязов З. Д. Махсудов О.Ш. Кредитная поддержка инновационного развития / SCHOLAR 1(32) сон, ноябрь 2023, 171-179

17. www.lex.uz -O`zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

18. www.nbu.uz - O`zbekiston milliy banki.